MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ZAMONAVIY INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH ORQALI IQTISODIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Oripova A’lo O‘ktam qizi
Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi
e-mail: Oripovaalojon@gmail.com
Amirqulova Sevinch Muxammad qizi
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi
e-mail: Amirqulovasevinch@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati, uning afzalliklari va bolalar hayotida qanday o‘rin egallaganligi haqida yozilgan. Iqtisodiy tarbiyani bolalarga qanday o‘rgatish kerakligi va ba’zi usullar to‘g‘risida aytib o‘tilgan. Bolalarni tejamkorlikka o‘rgatishda nimalarga e’tibor berishimiz kerakligi, ota-onalarning bolalar bilan qanday munosabatda bo‘lishi kerakligi haqida ham tavsiyalar berilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tejamkorlik sifatini shakllantirish orqali kelajakda yetuk, aqlli va har bir harakatini to‘g‘ri mushohada qila oladigan shaxsni kamol toptirishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: AKT, shaxs, multimedia vositalari, voqea-bilim muhiti, axborot muhiti.

Abstract: This article discusses the importance of economic education, its advantages and its place in children's lives. It discusses how economic education should be taught to children and some methods. It also gives recommendations on what we should pay attention to when teaching children to save money, and how parents should interact with their children. By forming the quality of thrift in preschool children, we can raise a mature, intelligent person in the future who can correctly observe his every action.

Keywords: ACT, personality, multimedia tools, event-knowledge environment, information environment.

Maktabgacha yosh davri 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu bosqich bola hayotining eng muhim davrlaridan biridir va aynan shu davrda bola o‘rganishi kerak bo‘lgan bilimlarning 80-90 % ini egallab oladi. Maktabgacha yosh davri bilim berishning, uni o‘rganishning eng qulay va har tomonlama mos bo‘lgan rivojlanish davri hisoblanadi. Bu davrda ta’lim va tarbiyaning barcha turlari uyg‘unlikda olib borilmog‘i lozim. Shu jumladan, maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilariga iqtisodiy tarbiyaning qanchalik muhimligi, hayotda qo‘llash kerakligi haqida dastlabki elementar bilimlar berib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida Maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ekanligi, maktabgacha ta’lim sohasida dasturiy vositalar, axborot ma’lumotlar bazalari, multimedia mahsulotlarini ishlab chiqish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatida qo‘llash haqida fikrlar bildirilgan. Bu qarorga muvofiq tarbiyachi-o‘qituvchilar bolalarda iqtisodiy tarbiyani, tejamkorlikni shakllantirishda multimedia vositalaridan ham keng foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Bu jarayon albatta maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda ota-onalar hamkorligida amalga oshiriladi va ular ham o‘z farzandlariga tejamkorlikni o‘rgatish jarayonida muhim hayotiy saboqlarni ham o‘rgatib borishlari kerak. Masalan, pulni tejash, tabiiy boyliklarni tejash, suvni tejash, elektr energiyasi va issiqlik energiyasini tejash va hokazolar. Bolani tejamkor bo‘lishini xohlasak birinchi navbatda ota-onalar o‘zlarini tarbiya etmog‘i lozim. Chunki bola eshitgan narsasini emas, balki ko‘rgan narsasini qilishga odatlangan. Taqlidchan bo‘lishi bu tabiiy

holdir. Har narsada bola ota-onasidan o‘rnak oladi. Bolaga tejamkorlik faqat pul bilan bog‘liq emasligini tushuntirish kerak. U ega bo‘lib turgan barcha narsalarini tejab ishlatishi kerakligi haqida bilishi lozim. Bola tejamkor bo‘lsa, nafaqat o‘ziga balki dunyodagi barcha insonlarga ham foydalidir. Bola faqat ota-onasi xohlagani uchun emas, balki buni bilib tejamkor bo‘lishga harakat qilishi kerak. Bola o‘z tashabbusi bilan ishlatmaydigan o‘quv qurollarini, o‘qib bo‘lingan kitoblarni boshqalarga berish kerakligini aytsa, ota-ona tejamkor bola tarbiyasida yaxshi natijalarga erishayotgan bo‘ladi.

Ota-ona ham o‘z xatti-harakatlariga diqqatli bo‘lsa, uyda ochiq qoldirilgan suvni, yoniq qolgan chiroqni, behuda yoniq turgan televizorni o‘chirib yurishi kerak. Buni bola ota-onasida ko‘rsa, albatta, o‘ziga qoida deb qabul qiladi va o‘zi ham shunga odatlanadi. Har doim bolaga tabiatning go‘zalligi haqida, suv qanchalik muhimligini, chiroyli o‘rmonlar rasmini, daraxtlarning gullab - yashnagan rasmlarini ko‘rsating va suhbatlashing. Bolaning shunda tejamkorlik hislatlari shakllanadi. Bulardan tashqari bolaning kichikligidan boshlab pul haqida to‘g‘ri tushunchalarini shakllantiring. Bolaga ham oila budjeti haqida ma’lumotlar bering. Oilaga pul qanaday mehnat va mashaqqatlar ortidan kelishini bilishi shart, shunda tejab ishlatish degan tushunchani ososn o‘rganib boradi. Ota-ona bolada pul yig‘ishni ham to‘g‘ri shakllantirishi kerak. Masalan, bolaning biror maqsadi uchun onasi ham, dadasi ham va bolani o‘zi ham pul yig‘ishi kerak. Misol uchun, bola velosiped olmoqchi bo‘lsa yig‘ilgan puldan olib berish orqali bola iqtisodiy madaniyatni egallab boradi. Albatta yuqorida keltirilgan bir nechta misollar ota-ona va bola, tarbiyachi va bola o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari va shunga o‘xshash munosabatlarda o‘ziga xos saarali ahamiyatga egadir. Shuningdek bolaga har qanday narsani oson o‘rgatish usuli bu-o‘yindir. O‘yin esa bolaning ta’lim va tarbiyada samarali natijasini ko‘rsatishida asosiy faoliyat turi hisoblanadi va bolaga iqtisodiy tarbiyani o‘yin orqali oson o‘rgatishimiz mumkin. Masalan, bolaga savdo-sotiq o‘yinini o‘ynatish orqali to‘g‘ri baholay olishni, pulni tejashni, kerak bo‘lgan narsani olishni, muomala madaniyatini o‘rgata olamiz. Bir qancha olimlarimiz ham iqtisodiy tarbiyaning bola hayotidagi o‘rni haqida fikrlarini bildirib o‘tgan. A.S. Makarenkoning fikricha, erta yoshdan boshlab bola oilaviy sharoitda kelajakdagi iqtisodiy faoliyatga odatlangan bo‘lishi va halollik, g‘amxo‘rlik, tejamkorlik, mas’uliyat haqida tushunchaga ega bo‘lishi lozim. "Iqtisodiy tarbiya", "Iqtisodiy ta’lim" kabi tushunchalarni talqin qilgan tatqiqotchilar: A.F. Amend, L.P. Kurakov, B.T.Lixachev fikrlariga ko‘ra shaxsning iqtisodiy fazilatlarini shakllantirishda tejamkorlik, samaradorlik, foyda, tadbirkorlik, tavakkalchilik, qiymat kabi tushunchalarni o‘zlashtirish iqtisodiy bilim olishning muhim jarayoni hisoblanadi. Maktabgacha ta’limda mezonlarga mos keladigan ko‘rsatkichlarning mavjudligi bo‘yicha iqtisodiy ta’lim darajasini yuqori, o‘rta, past darajada baholash mumkin. Yuqori darajada: bolalar iqtisodiy tushunchalarga ega bo‘ladi. Ota-onalarning ishiga qiziqish bildiradi, kasbi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi, ba’zi iqtisodiy so‘zlarni ishlatishi ham mumkin, o‘yinlardagi iqtisodiy bilimlarni hayotida qo‘llay oladi. O‘rta darajada: bunda bolalar iqtisodiy bilimga ega bo‘ladi, ammo uni qo‘llay olmaydi, ota-onalarining ishiga beqaror qiziqishlari bor, lekin mavjud bilimlari tiniq emas, noaniq, yuzaki bo‘ladi. Past darajada: bola iqtisodiy tushunchalarning ma’nosini tushuntira olmaydi, oila ehtiyojlariga qiziqish bildirmaydi, faqat tashqi kuzatuvchilar sifatida harakat qiladi. Quyida esa bolani yuqoridagi darajalarini rivojlantirishda, hamda tejamkorlikka o‘rgatishda bolalar uchun qo‘llaniladigan bir nechta o‘yin metodlarini ko‘rib chiqamiz.“Yarimta tuxum” metodi. Bu metod orqali bolalarga elektr energiya, issiqlik energiyasini tejashni o‘rgatamiz. Bolalar xonasiga yoki zalga yasalgan yarimta tuxumlarni yopishtiramiz. Buni yasashda ranglardan ham foydalansak yanada ham qiziqarli bo‘ladi. Farzandlarimizdan esa kim uyda yoniq qolgan chiroqni, behuda yongan gazni, yoniq turgan televizorni, ochiq qolib ketgan suvni o‘chirsa birinchi kelib, yarimta tuxumni butun qilishini so‘raymiz. Kim eng ko‘p butun tuxum yig‘sa, o‘sha uyimizdagi "Eng tejamkor bola" naminatsiyasiga ega bo‘ladi. Bola bu o‘yin orqali tejamkorlikni o‘rganadi va har doim e’tiborli bo‘lib yurishga odatlanadi.

“Barchasini xarid qil” metodi. Bu metod bolalarda iqtisodiy bilimni shakllantirishga yordam beradi. Tarbiyachi boshchiligida bolalarga xarid qilinishi kerak bo‘lgan narsa va predmetlarning ro‘yxati yoki rasmi beriladi va uni xarid qilishlari uchun kartochkalar beriladi keyin esa, bolalar

to‘g‘ri taqsimlash orqali ro‘yxatda keltirilgan barcha narsani olishga hamda kartochkalarni shunga qarab sarflashga harakat qilishadi. Barcha narsalarni xarid qilgan bolalar rag‘batlantirib boriladi. Natijada bolalarda pulni to‘g‘ri taqsimlash, xarid davomida qaysi narsa ko‘proq kerakligi qaysinisi esa ozroq kabi tushunchalarni o‘rganib boradilar. Shu kabi o‘yinlar bolalarning e’tiborini tortadi va ular buni bajarishga qiziqadi va bu o‘rgangan bilimlari bolaning hayoti davomida qo‘l keladi. Maktabgacha yoshda iqtisodiy ta’lim muhitining mazmuni quyidagilardan iborat:

-o‘yinga asoslangan iqtisodiy muhit yaratish;

- ijtimoiy muhit (ota- onalar, ta’lim jamoasi, MTT);

-voqea - bilim muhiti (qiziqarli ekskursiyalar, mashhur odamalar bilan uchrashuv)

- axborot muhiti (do‘konlar, banklar, xizmatlar markazi).

Iqtisodiy bilimning yana bir sharti oila, odamlar, jamiyatning iqtisodiy ahvoliga oid bolalar faoliyatini tashkil etishdir. O‘yin faoliyati bolaning asosiy faoliyati bo‘lganligi uchun o‘yin va mehnat kabi faoliyat turlari orqali bolaga iqtisodiy bilim berish oson kechadi. Oila iqtisodiyoti, jamiyat iqtisodiyoti, tadbirkorlik haqida elementar bilimga ega bo‘lishi bolaning dunyoqarashini yanada oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son "O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat dasturi. T.:2021.
3. F.R.Qodirova "Maktabgacha pedagogika" -T.: "Tafakkur", 2019.
4. N.Ismatova. Z.Zamonov "Tarbiya" Toshkent-2021.
5. U.G‘ofurov, Q.Sharipov –T.: "Tadbirkorlik asoslari", 2018.